

**"BIZ INTILGAN IDEAL INSON YOKI ZAMONAVIY TALABA QIYOFASI"**

**Mavlonov Muzaffar Otobek o'g'li**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrисabz filiali,  
OOMTSU fakulteti Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va  
ishlab chiqarishni boshqarish(tarmoqlar bo'yicha) yo'nalishi 4-kurs  
talabasi

Tel. (93) 909-78-02

E-mail:mavlonovmuzaffar70@gmail.com

**Matalov Shuhrat Ahmadjonovich.**

Ilmiy rahbar: Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrисabz filiali  
direktori, professor

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borish hamda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, filialda iqtidorli talabalarini izlash, aniqlash maqsadida ta'lim dargohining ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual yoshlarni tayyorlash va bu borada yuksak iste'dod sohiblarini tarbiyalash, yetishtirish, ulardagи noyob iste'dodlarini soha bo'yicha yetuk bilimga ega bo'lishini ta'minlash, talaba-yoshlarning tabiiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish boyicha qilinayotgan ishlar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Iqtidorli talabalar, ta'lim, tarbiya, milliy qadriyatlar, Psixologik portret, jamiyat, davlat, manfaat, millat, ideal talaba, ideal inson, moderator, shaxs, vafo, farosat, odamiylik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2023-yilning «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim» yili deb e'lon qilinishi ta'lim tizimida bir qancha o'zgarishlarni amalga oshishiga sabab bo'ldi. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmоqda, iqtidorli talaba yoshlarni nufuzli hamda xalqaro olimpiadalar, musobaqalar va tanlovlarda yuqori natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratilmoqda.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrисabz filialida bu borada, ya'ni yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishda joriy qilish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish

uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, bizga ma'lumki Toshkent kimyo-texnologya instituti Shahrishabz filiali rahbaryati va professor-o'qituvchilari tomonidan talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, filialda iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash maqsadida ta'lim dargohining ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual yoshlarni tayyorlash va bu borada yuksak iste'dod sohiblarini tarbiyalash, yetishtirish, ulardagi noyob iste'dodlarini soha bo'yicha yetuk bilimga ega bo'lishini ta'minlash, talaba-yoshlarning tabiiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish yo'lida tinmay mehnat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Men ushbu oliygochning bir talabasi sifatida institutimizda biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar va qaratilayotgan e'tibor kengligini takidlab o'tishni joiz deb topdim.

Bunga bir misol tariqasida, 2023-yilning 15-aprel sanasida Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrishabz filialida "Biz intilgan ideal inson yoki zamonaviy talaba qiyofasi" mavzusida bo'lib o'tgan trening-suhbat haqida fikr yuritmoqchiman.

Ushbu trening-suhbat asoschisi, Moderator: Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrishabz filiali direktori kimyo fanlari doktori, professor Mutalov Shuhrat Axmadjonovich. Spiker sifatida filial Yoshlar Ittifoqi fakultet yetakchisi Mavlonov Muzaffar Otobek o'g'li qatnashdi. Mavzuga qiziqish bildirib, o'z fikrlari bilan qatnashishni ixtiyor etgan dastlab 100 dan ortiq talabalar treningda ishtiroy etishdi.

Ushbu ishtirokchi talabalar mavzuga o'ta qiziqish bildirib, unga e'tiborsiz bo'Imagan holda filialimizdagi ko'plab talabalarga trening-suhbatdagi mavzular doirasini o'zlarining dunyo qarashlari bilan birlilikda, keng boyitgan holda tushuntirib berishdi.

Trening suhbat to'rt qismda olib borildi. Dastlab mavzu yuzasidan moderator: Mutalov Shuhrat Axmadjonovich "talabalar psixologik portreti haqida" :

"Psixologik portret" - bugungi kunda hech bir tashkilot potentsial va shaxsiy fazilatlarini baholash tartibi mavjud emas. Bolaning yoki kattalarning psixologik portretini tuzish, u o'zini qanday amalga oshirish kerakligini, qanday fazilatlarni rivojlantirish kerakligini va qaysi shaxs o'zini o'zi boshqarishi kerakligi haqida ko'proq bilib olish kerakligini ko'rishga yordam beradi.Barcha insoniy fazilatlardan voqif bo'lsangiz va ulardan oqilona foydalana olsangiz, Siz o'zingizga chiroyli psixologik portret yaratma olasiz.

Siz intilgan ideal inson kim? degan savolga aksariyat talabalar o'z ottonalarini aytishgan bo'lsa boshqalar esa Respublikamiz prezidentini va o'zlari

havas qilgan ustozlarini, ayrimlar esa badiiy asar qahramonlarini o'zları havas qilgan ideal inson sifatida ko'rishlarini aytishdi.

Siz intilgan ideal insonda qaysi hislatlar bo'lismeni xohlardiz? deyilgan savolga javoban talabalar o'zları havas qilgan ideal insondagi hislatlarni sanab o'tishdi. Ayrim talabalar o'zları ta'savvur qilgan va intilayotgan ideal inson hislatlaridan aqli, kuchli, sabrlilik hislatlarini aytishsa, boshqa talabalar adolatli, xalqchil, kamtar, haqgo'y, sahiy, bilimli, mehribon, tarbiyalı, teran fikrlaydigan, dindor, vafoli, farosatli, odamiylik hislatlarni sanab o'tib, ushbu hislatlarga nima sabab intilayotganliklari haqida izoh berib o'tishdi. Shu orada bir narsani ta'kidlab o'tsam, siz ham ushbu savollarni o'zingizga berib ko'ring va javobingizni tahlil qiling?

Har bir insonda u intilgan ideal inson bo'larkan unga teskari ravishda ular yomon ko'radigan insonlar ham albatta bo'ladi. Trening-suhbatda talabalar o'zları yoqtirmaydigan yomon insonlar sifatlarini ham sanab o'tishdi. Ular sabrsiz, ahloqsiz, o'ta asabiy, muomalasiz, insonlarni kamsituvchi, e'tiborsiz, ikkiyuzlamachi, yolg'onchi, vafosiz, minnatchi, xasadgo'y va shunga o'xshash ko'plab salbiy hislatlarni sanab o'tishdi.

Talabalar ushbu hislatlarga ega bo'lgan har qanday odamdan uzoq turish kerakligi aytishgan bo'lsa, Moderator sifatida ustozimiz:

"Bunaqangi salbiy hislatlarga ega bo'lgan insonlarni siz ushbu hislatlaridan vos kechishiga sababchi bo'lisingiz mumkin. Aytishadiku "To'rtda axmoq ichida bo'lsang beshinchisi sen bo'lasan" deb, siz talabalar to'rtda aqli inson bo'ling va yoningizga bir axmoqni tortib uni beshinchi aqli insonga aylantiring? Men ishonamanki Oliy dargohimizda ilm olayotgan sizdek ko'plab ta'labalar bu ishni albatta amalga oshira olishadi" deya o'z fikrlarini bildirdilar.

Trening-suhbat so'ngida, Mutalov Shuhrat Axmadjonovich Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrисabz filiali talabalari o'tasida "BIZ INTILGAN IDEAL INSON YOKI ZAMONAVIY TALABA QIYOFASI" mavzusidagi tanlov e'lon qildilar va ushbu tanlov g'oliblarini pul mukofoti bilan rag'batlantirishlarini aytadilar:

1-o'rin uchun berilayotgan stependiyaning 3 baravari.

2-o'rin uchun stependiyaning 2 baravari.

3-o'rin uchun stependiyaning 1 baravari miqdorida.

Bu esa talaba yoshlarimizni yanada faollikka chorlaydi.

Tanlovda talabalar yuqoridagi mavzu yuzasidan maqola yozishlari va uni gazeta, jurnallarda chop ettirishlari, yoki ijtimoiy tarmoqlarga video, matnli shakllarda joylashlari kerak bo'ladi (ijtimoiy tarmoqlarga joylangan video, matnli maqolalarni qanchalik darajada ko'riganligi,

ommalashganligi, ya`ni to`plagan layk yoki reaksiyalar maqolani yuqori sifatli ekanligini baholaydi).

G'oliblar joriy yilning 30- iyun Yoshlar kuni munosabati bilan taqdirlanishadi. Talabalar trening suhbatdan mammun bo'lishdi va bunday suhbatlar bardavom bo'lishini so'rab qolishdi.

Ustozimiz Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrисabz filiali direktori professor Mutalov Shuhrat Axmadjonovich tomonidan o'tkazilgan ushbu ajoyib trening-suhbatdan olgan taassurotlarimni sizga ularashgim keldi. Men harakat qildim ushbu suhbatni yoritib berishga va ishonamanki siz ham men his qilgan tuyg'ularni his qila oldingiz. Bunga javoban sizlar ham kundan - kun rivojlanayotgan Mustaqil Yangi O'zbekistonimizda bo'layotgan va Yoshlarga qaratilayotgan imkoniyatlardan chetda qolmaysiz. O'zingizni hissangizni albatta qo'shasiz degan umiddaman. Men Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrисabz filialining talabasi sifatida shuni takidlashim kerakki, "PREZIDENTIMIZ TOMONIDAN BIZ YOSHLARGA BERILAYOTGAN E'TIBOR VA YARATILAYOTGAN SHART-SHAROITLARGA MUNOSIB BO'LGAN HOLDA SHU ISLOHATLARGA BIZ YOSHLAR HAM O'Z HISSAMIZNI QO'SHISHIMIZ KERAK".